O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 12-iyul | 386-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2025-yil uchun byudjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish chora-tadbirlari haqida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 90-94-moddalariga muvofiq Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2025-yil uchun byudjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilishini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 85-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 03/23-3-13225-son xati bilan yuborilgan 2025-2027-yillar uchun Davlat byudjeti loyihasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan O‘rta muddatli byudjetni tayyorlash bo‘yicha yagona uslubiy qo‘llanma ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 90^2-moddasiga muvofiq, Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2025-yilgi mahalliy byudjetlariga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdori hamda obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar bo‘yicha xarajatlarning cheklangan miqdori O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan yetkazilganligi inobatga olinsin.

2. Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev)ga:

bir ish kunida 2025-yil uchun byudjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish tartibini shahar va tumanlar mahalliy byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun – barcha shahar va tumanlar hokimliklariga hamda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga;

uch ish kunida shahar va tumanlar hokimliklariga viloyatning viloyat byudjetidan ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini hamda viloyatning viloyat byudjetidan moliyalashtiriladigan hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga - kelgusi moliya yili uchun ajratiladigan byudjet mablagʻlarining cheklangan miqdorlarini yetkazilishini taʼminlasin.

3. Fargʻona viloyati mahalliy byudjetining 2025-yil uchun byudjet soʻrovi va 2026-2027-yillar uchun byudjet moʻljallarini tuzish va uni Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish boʻyicha viloyat Ishchi guruhi (keyingi oʻrinlarda – Ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Barcha shahar va tumanlar hokimlari:

viloyatning viloyat byudjetidan ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini olganidan keyin ikki ish kuni ichida tegishli byudjetlarning byudjet soʻrovlarini tuzish hamda ularni taqdim etish muddatlarini belgilash toʻgʻrisida qarorlar qabul qilish.

shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2025-yil uchun byudjet soʻrovi va 2026-2027-yillar uchun byudjet moʻljallarini tegishli Iqtisodiyot va moliya boʻlimlari tomonidan viloyat boshqarmasiga 2-ilovaga muvofiq belgilangan muddatlarda taqdim etilishini taʼminlasinlar.

5. Viloyatning viloyat byudjetidan mablagʻ oluvchi hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilar tomonidan 2025-yil uchun byudjet soʻrovi va 2026-2027-yillar uchun byudjet moʻljallarini Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish muddatlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Viloyat Ishchi guruhi Fargʻona viloyati mahalliy byudjetining 2025-yil uchun byudjet soʻrovi va 2026-2027-yillar uchun byudjet moʻljallarini tuzishda:

xarajatlar boʻyicha – viloyat, shahar va tumanlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet mablagʻlari taqsimlovchilarning byudjet soʻrovlari hamda shahar va tumanlar byudjetlarining loyihalari, shuningdek viloyat byudjetidan moliyalashtiriladigan ayrim tadbirlar uchun xarajatlarning prognoz qilinayotgan hajmi asosida ishlab chiqilishini;

viloyat mahalliy byudjeti loyihasini taqchillik bilan ishlab chiqishga yoʻl qoʻyilmasligini nazarda tutsin.

7. Fargʻona viloyati Davlat soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov) shahar va tumanlar boʻyicha 2025-yil uchun Fargʻona viloyatining byudjet daromadlari prognozini ishlab chiqishda:

Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq organlari va hokimliklarning boshqarmalari (boʻlimlari), viloyat, shahar va tumanlar boshqaruvi organlarining boʻlinmalari tomonidan maʼmuriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida shahar va tumanlar hamda soliq turlari

kesimida ishlab chiqib, viloyat hokimligiga joriy yilning 22-iyul kuniga qadar taqdim etilishini taʼminlasin.

8. Fargʻona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Roʻzaliyev) Fargʻona viloyati mahalliy byudjetining 2025-yil uchun byudjet soʻrovi va 2026-2027-yillar uchun byudjet moʻljallarini joriy yilning 1-avgust kuniga qadar Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilishini taʼminlasin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 12-iyuldagi
386-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2025-yil uchun byudjet so‘rovi va 2026-2027-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat Ishchi guruhi

T A R K I B I*

1.	X.Sirojitdinov	-	Farg‘ona viloyati hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari
2.	Z.Ro‘zaliyev	-	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i, ishchi guruh rahbari o‘rinbosari
3.	M.Mamatxonov	-	Soliq boshqarmasi boshlig‘i, ishchi guruh rahbari o‘rinbosari
	Ishchi guruhi a’zolari:		
4.	Sh.Dolimov	-	Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i;
5.	B.Pirmqulov	-	Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i;
6.	M.Saydullayev	-	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i;
7.	J.Tojibayev	-	Madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig‘i;
8.	N.Xakimov	-	Sport boshqarmasi;
9.	F.Tursunov	-	Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i;
10	T.Mamasiddiqov	-	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, ishchi guruhi kotibi

***** *Ishchi guruhi a’zolari boshqa ishga o‘tgan hollarda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoxud ushbu lavozim vazifalarini bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.*

Barcha shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2025-yil uchun byudjet soʻrovi va 2026-2027-yillar uchun byudjet moʻljallarini tegishli tuman (shahar)lar Iqtisodiyot va moliya boʻlimlari tomonidan Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish MUDDATLARI

1.	Fargʻona shahar	-	2024-yil 20-iyul
2.	Qoʻqon shahar	-	2024-yil 17-iyul
3.	Quvasoy shahar	-	2024-yil 16-iyul
4.	Margʻilon shahar	-	2024-yil 17-iyul
5.	Oltiariq tumani	-	2024-yil 18-iyul
6.	Bagʻdod tumani	-	2024-yil 19-iyul
7.	Buvayda tumani	-	2024-yil 16-iyul
8.	Beshariq tumani	-	2024-yil 19-iyul
9.	Quva tumani	-	2024-yil 19-iyul
10.	Uchkoʻprik tumani	-	2024-yil 18-iyul
11.	Rishton tumani	-	2024-yil 20-iyul
12.	Soʻx tumani	-	2024-yil 18-iyul
13.	Toshloq tumani	-	2024-yil 16-iyul
14.	Oʻzbekiston tumani	-	2024-yil 20-iyul
15.	Fargʻona tumani	-	2024-yil 19-iyul
16.	Dangʻara tumani	-	2024-yil 16-iyul
17.	Furqat tumani	-	2024-yil 15-iyul
18.	Yozyovon tumani	-	2024-yil 15-iyul
19.	Qoʻshtepa tumani	-	2024-yil 15-iyul

Viloyatning viloyat byudjetidan mablagʻ oluvchi hududiy byudjet mablagʻlari taqsimlovchilar tomonidan 2025-yil uchun byudjet soʻrovi va 2026-2027-yillar uchun byudjet moʻljallarini Fargʻona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish
MUDDATLARI

1.	Fargʻona viloyati Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi	-	25-27-iyul
2.	Fargʻona viloyati Sogʻliqni saqlash boshqarmasi	-	24-26-iyul
3.	Fargʻona viloyati sport boshqarmasi	-	23-25-iyul
4.	Fargʻona viloyati Madaniyat boshqarmasi	-	23-25-iyul
5.	Fargʻona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish boshqarmasi	-	23-25-iyul
6.	Fargʻona viloyati Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi	-	23-25-iyul
7.	Fargʻona viloyati Irigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	-	24-26-iyul
8.	Fargʻona viloyati Transport boshqarmasi	-	22-23-iyul
9.	Fargʻona viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qoʻmitasining hududiy boshqarmasi	-	22-23-iyul
10.	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi Fargʻona viloyati boshqarmasi	-	22-23-iyul
11.	Fargʻona viloyati Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	-	22-23-iyul
12.	Fargʻona viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi	-	23-25-iyul
13.	Raqobatni rivojlantirish va istemolchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi Fargʻona viloyati boshqarmasi	-	22-23-iyul
14.	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Fargʻona viloyati boshqarmasi	-	22-23-iyul
15.	Fargʻona viloyati Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi	-	25-28-iyul
16.	Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi Fargʻona viloyati boshqarmasi	-	25-27-iyul
17.	Fargʻona viloyati Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi	-	22-23-iyul

18.	Farg‘ona viloyati Adliya boshqarmasi	-	22-23-iyul
19.	Farg‘ona viloyati hokimligi	-	24-26-iyul
20.	Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi	-	22-23-iyul
21.	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi	-	22-23-iyul
22.	Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	-	25-27-iyul
23.	Farg‘ona viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi	-	22-23-iyul
24.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi	-	23-25-iyul
25.	Farg‘ona viloyati O‘zarxiv boshqarmasi	-	22-23-iyul
26.	Ma’naviyat va ma’rifat markazi Farg‘ona viloyati bo‘limi	-	23-25-iyul
27.	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi	-	23-25-iyul
28.	O‘zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi Farg‘ona viloyati hududiy bo‘limi	-	22-23-iyul
29.	O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Farg‘ona viloyati bo‘limi	-	22-23-iyul
30.	Farg‘ona viloyati Soliq boshqarmasi	-	23-25-iyul
31.	Farg‘ona viloyati Mudofaa ishlari boshqarmasi	-	25-28-iyul
32.	Farg‘ona viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi	-	25-28-iyul
33.	Boshqa tashkilotlar	-	25-27-iyul